

Ishlab chiqarish bilan band bo‘limgan aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlashni takomillashtirish

Baxtiyor Egamnazarovich Xudoyberganov
Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Nurafshon shahar hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarish bilan band bo‘limgan aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash masalalari tahlil qilinadi. Aholining ushbu toifasini tashkil etuvchi qatlamlar - talabalar, uy bekalari, ishsizlar, nafaqadagi fuqarolar va boshqa ijtimoiy guruhlar faoliyatining o‘ziga xos jihatlari hisobga olingan holda, ularni favqulodda holatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: favqulodda vaziyatlar, xavfsizlik, aholini tayyorlash, ijtimoiy guruhlar, fuqarolik muhofazasi

Improving the preparation of the non-productive population for emergencies

Bakhtiyor Egamnazarovich Khudoyberganov
Tashkent regional Emergency Situations Department, Nurafshon city life safety training center

Abstract: This article analyzes the issues of preparing the non-productive population for emergencies. Taking into account the specific aspects of the activities of this category of the population - students, housewives, the unemployed, retired citizens and other social groups, scientifically based proposals are put forward to improve the system of preparing them for emergencies.

Keywords: emergencies, security, population preparation, social groups, civil protection

Kirish

Bugungi globallashuv va ekologik, texnogen hamda ijtimoiy xatarlarning ortib borayotgan sharoitida favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasi har bir mamlakat xavfsizligining ajralmas qismidir. Ayniqsa, ishlab chiqarish bilan band bo‘limgan aholini ushbu xavflarga tayyorlash dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlari, “Fuqarolik muhofazasi to‘g‘risida”gi qonuni, FVV qarorlari orqali ushbu sohada muhim qadamlar

tashlangan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish bilan band bo‘lmaq qatlamni uzluksiz o‘qitish va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda tizimli yondashuv hali to‘liq shakllanmagan.

Asosiy qism

Ishlab chiqarish bilan band bo‘lmaq aholi qatlamlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi ishchilar

- Ta’lim sohasidagi xodimlar (o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar)
- Sog‘liqni saqlash sohasidagi xodimlar (shifokorlar, hamshiralar)
- Davlat xizmatidagi xodimlar (byurokratlar, huquq-tartibot organlari)
- Moliyaviy xizmatlar (bank xodimlari, sug‘urta agentlari)
- Savdo-sotiq va marketing sohalaridagi mutaxassislar

Madaniyat va san’at sohasi vakillari

- Aktyorlar, yozuvchilar, musiqachilar

- Dizaynerlar, rassomlar

- OAV (ommaviy axborot vositalari) vakillari: jurnalistlar, televide niye xodimlari

Talabalar

- Oliy va o‘rta ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmaydi, ammo kelajakdagi mehnat bozori uchun tayyorlanmoqda.

Ihsizlar

- Rasmiy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmayotgan, ish izlayotgan yoki vaqtincha band bo‘lmaq shaxslar.

Pensiya yoshidagi shaxslar

- Mehnat faoliyatini yakunlagan va nafaqada bo‘lgan shaxslar.

Uy bekalari va parvarishlovchilar

- Uyda bolalarni, kasal yoki nogiron qarindoshlarni parvarish qilayotgan shaxslar.

Ular rasmiy ishlab chiqarish jarayoniga kirmasada, jamiyatda muhim ijtimoiy rol o‘ynaydi.

Ularning jamiyatdagi roli

Garchi ular bevosita ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmasalar-da, bu qatlamlar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi:

- Xizmat ko‘rsatish sohasi jamiyatning turmush darajasini oshiradi.

- Ta’lim va sog‘liqni saqlash - inson kapitalini rivojlantiradi.

- Madaniyat va san’at - milliy o‘zlik va ma’naviyatni shakllantiradi.

• Uy ishlarini bajarayotgan yoki bolalarni tarbiyalayotganlar - kelajak avlodga ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu qatlamlarning favqulodda vaziyatlardagi harakatlar algoritmini yetarlicha bilmasligi yoki amaliy ko‘nikmalarga ega emasligi ularning xavf-xatarlarga nisbatan himoyasiz bo‘lishiga olib kelmoqda.

Amaldagi tizimga tahlil

Hozirgi paytda quyidagi shakllarda tayyorgarlik olib borilmoqda:

- Mahalliy hokimiyatlar tomonidan tashkil etilgan o‘quv-seminarlar;
- Ta’lim muassasalarida nazariy mashg‘ulotlar;
- Fuqarolik muhofazasi kunida o‘tkaziladigan ko‘rgazmalar va mashqlar.

Ammo bu tadbirlarning muntazamligi, zamonaviylik darajasi, qamrovi va sifatiga oid muammolar mavjud:

- Statistikaga asoslangan monitoring yo‘qligi;
- Axborot texnologiyalaridan foydalanilmasligi;
- Motivatsion omillarning yetarli emasligi (masalan, ishsiz yoki uy bekalari uchun bu tadbirlarning ahamiyati tushuntirilmagan);
- Amaliy mashg‘ulotlar kamliyi.

Taklif va yechimlar

a) Ma’lumotlarni raqamlashtirish va monitoring qilish

- Maxsus raqamli platforma yaratish (masalan, “Favqulodda vaziyatlar Akademiyasi” onlayn portalı);
- Har bir fuqaro uchun shaxsiy tayyorgarlik profili yaratish (sertifikatlar, testlar, mashg‘ulotlar ro‘yxati).

b) Mikromintaqaviy trening markazlarini tashkil etish

- Har bir mahallada kichik o‘quv guruuhlarini shakllantirib, mobil instruktorlar jamoasi orqali amaliy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini tashkil etish.

c) Motivatsion mexanizmlarni joriy qilish

- Treninglarda qatnashganlar uchun imtiyozli ro‘yxatlarga kiritish (masalan, tabiiy ofat holatida yordam bиринчи bo‘lib ko‘rsatiladi);
- O‘quvlarni tugatganlarga sertifikatlar berish, bu esa ularning ishga joylashish imkoniyatlarini ham oshirishi mumkin.

d) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish

- Telegram, YouTube va boshqa platformalarda qisqa video darslar;
- OAV orqali maxsus “Xavfsizlik saboqlari” ko‘rsatuvarlarini efirga uzatish.

e) Talabalar va ko‘ngillilarni jalb qilish

- Oliy ta’lim muassasalarida ko‘ngillilar jamoasi shakllantirib, ularni mahalla aholisini o‘qitishga jalb etish.

Xulosa

Ishlab chiqarish bilan band bo‘lmagan aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash davlat xavfsizligi, inson salomatligi va mol-mulkni saqlab qolish yo‘lida muhim omildir. Amaldagi tizimni raqamlashtirish, mikromintaqaviy treninglarni kuchaytirish, aholini rag‘batlantirish va OAV orqali muntazam tushuntirish ishlari olib borish orqali bu yo‘nalishda sezilarli yutuqlarga erishish mumkin.

Takliflar

1. "Aholi xavfsizligi" elektron platformasini yaratish va bosqichma-bosqich joriy etish;
2. Har bir mahallada oyda kamida 1 marotaba amaliy trening o'tkazilishini qonun bilan belgilash;
3. Ishsiz va uy bekalari uchun favqulodda vaziyatlar bo'yicha soddalashtirilgan dastur asosida 8 soatlik kurslar ishlab chiqish;
4. Mahalla faollari, yoshlar yetakchilari va ko'ngillilar orqali aholini jalg etish mexanizmini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi rasmiy hujjatlari.
3. "Aholining favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligi" mavzusidagi xalqaro tajriba tahlillari - UNDRR, IFRC hisobotlari.
4. Tursunov A., "Favqulodda vaziyatlarda harakat algoritmlari" - Toshkent, 2021.
5. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi seminar materiallari, 2023-yil.